

MAMLAKATIMIZDA TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI

Yuldashev Kudrat Abduvaxatovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Maxsus-kasbiy fanlar kafedrası dotsenti, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori, (PhD) podpolkovnik

Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu — ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizini va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq.

Shavkat MIRZIYOEV

Annotatsiya: *Maqolada bugungi kun mamlakatimizda ta'limni rivojlantirish, kadrlarni o'qitish hamda ta'lim sifatini oshirish ifodalangan.*

Annotatsiya: *V stat'ye opisano razvitiye obrazovaniya v nashey strane segodnya, podgotovka kadrov, povisheniye kachestva obrazovaniya.*

Annotation: *In the state described the development of education in our country, preparation of personnel, increase in quality of education.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim, oliy, tarbiya, kadrlar, sifat, konsepsiya, milliy dastur, mutaxassis, jamiyat, professional faoliyat, o'quv-tarbiya, g'oya, ijtimoiy intellekt, madaniyat, tashabbus, ijodiy tafakkur, zamonaviy.*

Klyucheviye slova: *Obrazovaniye, vissheye obrazovaniye, talant, kachestvo, konsepsiya, natsional'naya programma, ekspert, obshestvo, professional'naya deyatel'nost', obrazovaniye, ideya, sotsial'niy intellekt, kul'tura, initsiativa, tvorcheskoye mishleniye, sovremennoye.*

Key words: *Education, higher education, talent, quality, concept, national program, expert, society, professional activity, education, idea, social intelligence, culture, initiative, creative thinking, contemporary.*

Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma'rifat va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi, insoniyat fan o'qi atrofida aylanayotgandek go'yo. Jahonning yetakchi davlatlarida ta'limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Negaki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo'lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Har qanday mamlakat o'z taraqqiyot yo'lini belgilar ekan, ta'lim sohasidagi islohotlarga ustuvor vazifa sifatida qaraydi. Ma'lumki, mamlakatimiz mustaqilligi milliy ta'lim sohasida tub

islohotlarni amalga oshirish uchun zamin yaratildi va bu borada e'tiborga molik ishlar amalga oshirilmoqda⁷³.

Zamonaviy talablar inobatga olingan holda, oliy o'quv yurtlarining pedagog kadrlarini qayta tayyorlash yo'nalishlari bo'yicha qayta tayyorlash va malaka oshirishning o'quv dasturlarini muntazam takomillashtirib borish ishlarini tashkil etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri xisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida MDH davlatlari ichida birinchi bo'lib O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasida qat'iy islohotlar amalga oshirila boshlandi. Ayniqsa "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ning amalga kiritilishi yangi bosqichni boshlab berdi. Natijada ta'lim tizimi va mazmun - mohiyati bozor munosabatlari sharoitidan kelib chiqib takomillashtirildi. Hozirgi vaqtda mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o'zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Respublikada ta'lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda⁷⁴. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta'lim va tarbiya berish tizimi islohatlar talablari bilan chambarchas bog'langan bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat talablari asosida ta'lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir. O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlardan asosiy maqsad, yurtimizda sog'lom va barkamol, bilimli, yuksak ma'naviy-ahloqiy fazilatlariga ega bo'lgan avlodni shakllantirishdan iborat. Aynan ana shu maqsadga erishish uchun Prezidentimiz rahnamoligida yangi davrda yashaydigan, yangicha fikrlaydigan, yangi ishlab chiqarish, ijtimoiy sharoitlarda faoliyat ko'rsatadigan, zamonaviy kasbiy mahoratga ega bo'lgan mutaxassis kadrlar tayyorlashning "O'zbek modeli" hayotga tadbiiq etilmoqda. Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarini boshqarish sohasida xar bir raxbar xodimlar va professor-o'qituvchilar normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan o'z huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini bilishi lozim. Ushbu dasturda oliy ta'limning normativ-huquqiy asoslari jumladan: O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari xamda oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyruqlari bayon etilgan. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari tomonidan ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Ta'lim to'g'risidagi qonun, Kadrlar tayorlash Milliy dasturi, farmonlar, qarorlar va buyruqlar kabi normativ hujjatlar qo'llanilmoqda. Lekin shu kunga qadar ta'lim va tarbiya jarayonlarini sub'yektlari tomonidan ushbu hujjatlarni amalda qo'llanilishining nazariy va amaliy jixatlari deyarli o'rganilmagan. Bu xolatlar oliy ta'lim muassasalarida qo'llaniladigan oliy ta'limning

⁷³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi PQ-4391-son «Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi [qarori](http://www.lex.uz) // URL <http://www.lex.uz>

⁷⁴ O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonun// URL <http://www.lex.uz>

normativ-huquqiy asoslarini xar tomonlama nazariy va amaliy jihatdan o'rganish va tahlil etishni dolzarbligidan dalolat beradi⁷⁵.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 25 yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori nafaqat xalq ta'limi xodimlarining malaka oshirish tizimini tubdan isloh qilish, balki umumiy o'rta ta'lim muammolarini kompleks o'rganish hamda ilmiy tahlil qilish, ilg'or xorijiy tajribalarni amaliyotga joriy etish kabi vazifalarni ham belgilab bergani bilan ahamiyatlidir. Bu, o'z navbatida, ta'limda o'zaro integratsiya jarayonini tezlashtirishga xizmat qiladi. Ayni vaqtda Abdulla Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini o'rganish va istiqbollari belgilash ilmiy-tadqiqot institutida xalq ta'limi tizimining turli muammolarini tahlil qilish bilan birga, O'zbekistonning xalqaro ta'lim indeksini yuqoriga ko'tarish uchun ta'lim sifatini oshirish bo'yicha ham ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, ta'lim va tarbiya qushning ikki qanoti singari bo'lib, uning bir qanotini sindirib, yuksak parvozga erishib bo'lmaydi.

Oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashni rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari qo'yidagilardan iborat:

Shu o'rinda mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalariga xorijiy mutaxassislarni jalb qilishni orqali ta'lim sifatini oshirish maqsadga muvofiq. Misol uchun: 2017 – 2019 yillarda ta'lim jarayoniga 1 154 nafar xorijlik yuqori malakali pedagog xodim va olim jalb etildi (AQSHdan 94 nafar, yevropa mamlakatlaridan 445 nafar, Osiyo mamlakatlaridan 299 nafar, MDH mamlakatlaridan 316 nafar) jalb etilgan bo'lsada, respublikaning oliy ta'lim muassasalarida xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash faoliyati yo'lga qo'yish;

Oliy ta'limda ma'naviy-axloqiy mazmunni kuchaytirish, yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma'naviy g'oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda yot g'oya va mafkuralarga qarshi immunitetni mustahkamlash borasidagi ishlarni yanada rivojlantirish;

Respublika oliy ta'lim muassasalarini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar reytingining birinchi 1 000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga, ularning rasmiy veb-saytlari Webometrics xalqaro reytingining 1 000 talik ro'yxatiga kiritish⁷⁶;

Kadrlarni ya'ni talabalarni iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan extiyojini turar joylari hamda ijtimoiy infratuzilma ob'yektlari xorijiy talabalar ehtiyojlariga moslashtirish;

Oliy ta'lim tizimining rivojlanishi Konsepsiyada belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga erishishini jadallashtirish;

⁷⁵ O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus ta'lim vazirligining «Ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning qonunchilik normalari moduli» bo'yicha O'quv – uslubiy majmuasi T-2017

⁷⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi 2019 yil 8 oktyabrda PF-5847 sonli farmoni// URL <http://www.lex.uz>

Kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllantirish;

Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etishni shakllantirish;

Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish;

Oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta'minlash, moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash;

Kadrlarni tayyorlashda korrupsiyaga qarshi kurashish, shaffoflikni ta'minlashning ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish va ularda korrupsiyaga qarshi imunitetni xosil qilish.

Yuqoridagilarga asosanib yosh kadrlar o'zlari uchun bilim olishning o'zi kifoya emasligini, olingan bilimni taraqqiёт yo'lida sarflashlari kerakligini tushunishlari, mamlakatimizda ta'lim sifatini oshirish uchun xizmat qilidi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qonun// URL <http://www.lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonun// URL <http://www.lex.uz>
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qonun// URL <http://www.lex.uz>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi PQ-4391-son «Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi [qarori](#) // URL <http://www.lex.uz>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847 sonli farmoni// URL <http://www.lex.uz>
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus ta'lim vazirligining «Ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning qonunchilik normalari moduli» bo'yicha O'quv - uslubiy majmuasi T-2017.